

Shimoliy-G'arbiy harbiy okrugi serjantlar tayyorlash maktabi "Shaxsiy tarkib bilan ishlash uslubiyoti, harbiy pedagogika va psixologiya" sikli o'qituvchisi podpolkovnik A.Tursunov

Davlat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va qurolli kurashda psixologik axborot vositalarining xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov jonajon Vatanimizning mustaqilligini ilk davridan boshlab tinchlik siyosatini ilgari surib kelmoqdalar. Bugungi kunda xalqimiz faqat tinchlik bilan hayot bardavomligini, go'zalligini yaxshi biladi, angelaydi va yurak-yurakdan his qiladi. Bunga misol tariqasi shuni aytishimiz mumkinki, AQSHning Kolumbiya universiteti sotsiologlari tomonidan "Dunyoning eng baxtli mamlakatlari" degan mavzuda o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra 158 mamlakatlar o'rtasida 44-o'rinni, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari o'rtasida esa birinchi o'rinni egallashimizda O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.Karimovning xissalari beqiyosdir.

Shu o'rinda sivilizatsion rivojlanishning zamonaviy bosqichlarida axborot davlat, jamiyat institutlari har bir shaxs hayoti faoliyatida muhim o'rin kasb etadi. Ma'lumki keng ma'noda xavfsizlik – xavfning yo'qligi, ya'ni shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining xavf-xatardan himoyalanganlik holatidir. Axborotning xavfsizligi tashkiliy, me'yoriy-huquqiy qo'riqlash tizimi va boshqa tadbirlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Bugungi kunga kelib informatika va informatsiyalashtirish jarayoni shu qadar shiddat bilan rivojlanib bormoqdaki, insoniyat nafaqat uning oqibatlarini bashorat qilish, balki, ijtimoiy iqtisodiy va harbiy sohalaridagi salbiy natijalarni anglashga ham ulgurmay qolmoqda.

Davlat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va qurolli kurashlar olib borishda psixologik axborot vositalarining xususiyatlari juda katta ahamiyatga ega. Chunki davlat mudofaasini mustahkamlashda va qurolli to'qnashuvlarning oldini olishda psixologik kurash qurolini qo'llab, urushning oldini olish yoki bo'lmasa g'alabani tezlashtirish mumkin.

Aynan axborot vositalari orqali rejalashtirilgan siyosiy ishlar targ'ibot qilinadi. Davlat va Qurolli Kuchlarning siyosiy sohada rejalashtirilgan va olib borayotgan kurashlar, tarbiyaviy ishlar va dushman siyosatini yo'qqa chiqarishga qaratilgan tadbirlari aynan axborot vositalari orqali amalga oshiriladi.

Psixologik axborot vositalari deganda, biz axborot xabarlarini tarqatadigan hamma vositalarning xizmatlarini tushunamiz. SHu jumladan, kundalik nashrlar (adabiyotlar, broshyuralar, gazeta va jurnallar, turli tarzda bosib chiqariladigan axborotnomalar, plakatlar, chiziladigan rasmlar, fotosuratlar, varaqalar va boshqa

shunga o'xshagan mahsulotlar), radio va televidenie hamda internet orqali tarqatiladigan turli xabarlar, kino va video mahsulotlarini fuqarolar ongiga singdirish, san'atkorlar, haykaltaroshlar yaratgan xilma-xil san'at mahsulotlaridan foydalanish, maxsus kishilar yordamida davlat miqyosida mish-mishlarni tarqatish kabi ko'pdan-ko'p usullardan foydalanish psixologik axborotning ta'sirini kuchaytiradi.

Tinchlik paytida Davlat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda psixologik kurashning etakchisi va yo'l boshchisi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, ya'ni Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondon hisoblanadi. O'zbekiston Qurolli Kuchlarini mustahkamlashda, psixologik kurashning barcha uslublaridan foydalanib, davlatimizning mudofaa qobiliyatini kuchaytirish ishlarini amalga oshirilmoqda. Buning uchun O'zbekistonning Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov 2005 yilning 14 noyabrida Moskvada, Rossiya Prezidenti V. Putin bilan o'zaro muzokaralar o'tkazib, O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini rivojlantirish to'g'risidagi shartnomani imzoladi. Ana shu shartnomaning axborot vositalari orqali butun jahonga tarqatilishi, O'zbekiston Respublikasining jahonda yolg'iz emasligi va uning mudofaasiga putur etkazish - Rossiya mudofaasiga putur etkazish bilan barobar ekanligi butun olamga bildirildi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov 2005 yilning 14 noyabrida Moskva shaxriga uchish oldidan, Toshkent aeroportida Ommaviy axborot vositalari muxbirlarining savollariga javob berar ekan, quyidagilarni alohida ta'kidladi:

«Ma'lumki, 2004 yilning iyun oyida O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma imzolangan edi. Bu shartnoma bugun biz rasmiylashtirmoqchi bo'lgan ittifoqchilik munosabatlari yo'lida muhim qadam bo'lgan edi.

Bu shartnoma o'ta muhim va mas'uliyatli masala - ikki tomonlama harbiy, harbiy-texnikaviy aloqalarni yuqori va ishonchli asosda yana rivojlantirishni, Qurolli Kuchlarni barpo etish, ularni qurollantirishda o'zaro ko'mak va yordam berishni nazarda tutadi.

Bu shartnoma kuchga kirishi bilan O'zbekistonga qarshi qaratilgan har qanday g'arazli va yovuz hamla, bizning xududga bostirib kirishga bo'lgan urinishlar o'z - o'zidan Rossiyaga qarshi qo'l ko'tarish bo'lib hisoblanadi va tabiiyki, dunyodagi eng qudratli davlatlardan biri bo'lmish bu mamlakatni befarq qoldirmaydi. Va bordiyu, shunday holatlar sodir bo'lsa, ikki davlat rahariyati bamaslahat tegishli qaror qabul qilish va zarur choralar ko'rish imkoniga ega bo'ladi. Bizni ko'rolmaydigan, avvalo, mustaqil siyosatimizni, osoyishta va barqaror hayotimizni barbod qilish maqsadida uyushtirilgan qanchadan-qancha mudxish va yovuz harakatlar, albatta, bizdan tegishli choralarni ko'rishni talab qiladi. Andijondagi fojeali voqealarni uyushtirgan yovuz kuchlar va ularning xomiylari bugun ham tinchimasdan, xalqaro maydonda bizning

sha'nimizga qanchadan-qancha bo'hton va tuhmat gaplar yog'dirishdan, qo'poruvchilik harakatlaridan charchamayotgani - bularning barchasi doimo sezgir va hushyor bo'lishimizni taqozo etadi.

Bugungi O'zbekiston va bugungi Rossiya kechagi holatdagi davlatlar emas. O'zbekiston ham, Rossiya ham o'zining uzoq va davomli strategik manfaatlarini chuqur anglab, tahlil qilib, teng huquqli aloqalar o'rnatishni ma'qul topmoqda. SHu borada bir haqiqatni barchamiz yaxshi anglab olishimiz zarur. Faqat o'zini himoya qilishga qodir, bunga imkon topgan davlatninggina kelajagi yorug' bo'ladi».

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston davlatining xavfsizligini ta'minlash va uning Qurolli Kuchlari jangovar qudratini mustahkamlash uchun olib borgan amaliy harakati axborot vositalari orqali jahonga tarqatilgandan keyin, O'zbekiston davlatiga g'araz ko'zi bilan qaraydigan jahondagi ba'zi davlatlarning O'zbekiston davlatiga nisbatan uyushtirayotgan psixologik urushlari o'z-o'zidan mag'lubiyatga uchramoqda.

Shu tariqa, yurtimizga nisbatan g'arazli maqsadlarda O'zbekistondagi iqtisodiy-siyosiy sohalarni noto'g'ri yoritayotgan ayrim kuchlarning urinishlari bekor ketmoqda. O'zbekiston Qurolli Kuchlarining ta'lim va tayyorgarlik darajasi kundan kunga rivojlanmoqda. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, Armiyamiz hozirgi kunda nafaqat Vatanimiz chegaralarini, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini himoya qilmoqda, ayni vaqtda mustahkam iroda va xarakter, mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadigan, jismoniy chiniqish va yuksak insoniy fazilatlar kamol topadigan haqiqiy professional malaka oshirish maktabiga aylanmoqda.

Shu o'rinda aytishimiz mumkinki, Axborot - biror narsa to'g'risida olingan ma'lumotdir. Ma'lumot esa to'liq yoki qisqa, xolisona yoki noxolis, ijobiy yoki salbiy, qiziqarli yoki zerikarli, dolzarb yoki oddiy, foydali yoki foydasiz, samimiy yoki g'arazli va hokazo mazmunlarda bo'lishi mumkin.

Haqiqiy axborotni soxta axborotdan ajrata bilish, har qanday axborotni O'zbekiston manfaati nuqtai nazaridan xolisona baholash harbiy xizmatchilardan chuqur bilim va iqtidorni, keng dunyoqarashni talab etadi.